

## Ingliz Tili Darslari Uchun Optimal Ta'lim Muhitini Yaratish

**Qochqorova Zulfizar Abduxamid qizi**

Farg'ona davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchi

**Umaraliyeva Dilnoza To'xtasin qizi**

Farg'ona davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti, 22.104- guruh 2- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ingliz tili sinflarida ideal muhitni izlash o'quvchilar uchun samarali o'rganish tizimini yanada mustahkamlash bilan barobardir. Ushbu maqola jismoniy bo'shliqlar dinamikasini, interfaol o'qitish metodologiyasini, turli xil o'quv resurslarini va texnologiyaning asosiy rolini o'rganib, ingliz tili darslari uchun maqbul muhitni tashkil etuvchi muhim elementlarni havola etadi. Qulay muhitni tasavvur qilish va amalga oshirish orqali o'qituvchilar til o'rganishni an'anaviy chegaralardan tashqariga chiqishi mumkin, bu esa o'quvchilar uchun ingliz tilida bo'ladigon bo'shliqlarni to'ldirib, shu sohadagi bilimlarni yanada oshishi va qiziqish bilan o'rganishlariga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** Interaktiv darslar, interfaol o'qitish metodologiyasi, jismoniy bo'shliqlar dinamikasini, online platformalar, maqolalar, motivatsion muhit, online anjuman va forumlar.

Qulay o'quv muhitining ahamiyati ingliz tili sohasida yuqori baholanadi. Ushbu maqola ingliz tili darslarida o'zaro ta'sir va akademik mukammallikning jonli markaziga aylanadigan muhitni shakllantirishga hissa qo'shadigan tarkibiy qismlarni ochishga intiladi. Ingliz tilini o'rganuvchilar o'qish va yozish joylari yaratish uchun qulay yerlarni tanlashi juda muhim. Katta o'qish zallari, kutubxonalar, yozish markazlari yoki onlayn resurslar o'rganuvchilar uchun motivatsiyani oshirishi mumkin.

Quyida yaxshi muhitni yaratish uchun kerak bo'ladigon omillarni sanab o'tamiz:

Interaktiv darslar:

Ingliz tilini o'rganishda interaktiv darslar juda qulaydir. Online platformalarda, ilova va video darslar orqali o'qish, tinglovchilarning qiziqishi va intilishini oshirishi mumkin.

Maqolalar va kitoblar:

O'rganuvchilar uchun qulay muhit yaratishda ko'plab maqolalar, qissalar va interaktiv kitoblar ishlatish muhim. Bu, o'rganuvchilarning o'qish, tarjima qilish va tushunish orqali tilni o'rganishini oshirishiga yordam beradi.

Online suhbat va tanishuvlar:

O'rganuvchilar o'qish, yozish va gaplashish orqali o'rganishlari uchun online suhbat va tanishuvlar tashkil etish yaxshi variant bo'ladi. Bu, ularning amaliy kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishiga yordam beradi.

Testlar va o'quv natijalari:

O'qituvchilar testlar va o'quv natijalari orqali o'rganuvchilarning baho va rivojlanishlarini chuqur tahlil qilishlari mumkin. Bu ularning qanday yo'l bo'ylab davom etishini aniqlash uchun yordam beradi.

Real hayotga bog'lab o'rganish:

Ingliz tili darslari o'rganuvchilarning amaliyatga yo'naltirilgan bo'lishi juda muhimdir. Ular o'zlarini real hayotda ingliz tilini qo'llash orqali tilni o'rganishga intilishishi mumkin.

Online anjuman va forumlar:

Online anjuman va forumlar orqali o'rganuvchilar o'zlarini mustaqil his qilishlari, tajriba almashishlari va boshqa o'rganuvchilar bilan munozaralar yuritishlari mumkin.

Birgalikda jamoa bilan ishlash:

O'rganuvchilarning bir-birlari bilan aloqalarini uzaytirish uchun jamoa bilan ishlash muhimdir. Kelajakda ular boshqa o'rganuvchilar bilan hamkorlik qilishlari, jadvallar orqali muntazam uchrashishlari va bir-biriga yordam bermoqchi bo'lishlari mumkin. Bu haqida muhtaram Prezidentimiz Shavhat Mirziyoyev ham shunday deganlar: "Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo'lib, jamoa bo'lib shakllanadi. Ayni o'sha paytda ularni o'zlari o'rgangan muhitdan ajratib qo'ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining usluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur."

Bu muhitni yaratishning eng muhim tajribalardan biri hamkorlik va kommunikatsiyani o'rganuvchilarga taqdim qilishdir. Umuman olganda, maqola, o'rganish jarayonida shaxsiy, samarali va motivatsion muhitni yaratishning ahamiyati juda kattadir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslari uchun maqbul o'quv muhitini yaratish ko'p qirrali ishdir. Bu o'qituvchilardan juda kuchli tajriba va balki interaktiv faol bo'lishni talab qiladi. Agar o'qituvchilar va o'rganuvchilar biz yuqorida sanab o'tgan omillar orqali bu tilni o'rganadigan bo'lsa u holda u tilni o'rganish ancha tez va qiziqarli mashg'ulotga aylanishi tabiiy holat. Shu kabi omillar bilan ingliz tili sohasi hali yeto'liq zabt etilmagan mamlakat kabi tasavvur qilinadi. Optimal ta'lim tizimini rivojlantirish orqali biz aynan ta'lim sohasida juda katta marralarni zabt etamiz. Zero, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: «Har qanday muammoning yechimi - ta'lim» deb bejizga aytmaganlar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adam Charlz Roberts (2000), "Ilmiy fantastika tarixi": p. 48 yilda Ilmiyfantastika, Routledge, ISBN 0-415-19204-8.
2. Sh. Mirziyov. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. : O'zb., 2017.
3. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. G'G' Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Qosimov E.Yu.. Muloqot san'ati. Toshkent, 1996.
5. Sh. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. T. : O'zbekiston, 2017.
6. Orziev Z.M. Metodik tahlil Buxoro, 2018 y.